



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT  
VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT  
INSTITUTI**

**Musiqashunos olim, san’atshunoslik fanlari doktori,  
professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga  
bag‘ishlangan**

**“O‘ZBEK MUSIQIY MEROSINING TA’LIM  
TIZIMIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI”**

**Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

**2023-yil 28-noyabr**

**TOSHKENT-2023**

UDK 04  
KBK 93  
O' 25

“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati” mavzuidagi respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami [Matn]: materiallar to‘plami. – T.: O‘zDSMI, 2023. – 234 bet.

**Mas’ul muharrir:**

**Xudoyev G‘anijon** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi professori v.b., san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Tahrir kengashi a‘zolari:**

**Turg‘unova Nasiba** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi» kafedrasi dotsenti, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**Yakubov Zohidjon** – *O‘zRFA San’atshunoslik instituti bosh mutaxassisi, musiqashunos*

**Xudoyqulova Nilufar** – *O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi va musiqa nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi*

Mazkur to‘plamdan joy olgan ilmiy maqolalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi 118-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “2023-yil uchun mo‘ljallangan xalqaro va respublika tadbirlari rejasi”ga muvofiq, 2023-yil 28-noyabr kuni O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturi asosida san’atshunoslik fanlar doktori, professor Oqilxon Ibrohimovning yorqin xotirasiga bag‘ishlangan **“O‘zbek musiqiy merosining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati”** nomli Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasidagi materiallar asosida tayyorlandi.

**To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ul.**

va rivojlantirishda G.Tileumuratov va “Muqalles” dutorchilar ansamblining o‘rni beqiyosdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.05.2019 yildagi PQ-4320-son. <https://lex.uz/docs/-4380951>
2. Allanazarov D. “Qaraqalpaq xalq sazları” Nókis-2002.
3. Nadirova A. “Qaraqalpaq muzika tarixi”; “Sano-standart” nashri Toshkent-2018.
4. Ayımbetov Q. “Xalq danalığı”; “Qaraqalpaqstan” nashri Nókis-1988.
5. “Qaraqalpaq folklori” 5-tom “Qaraqalpaqstan” nashri Nókis-1988.
6. Dauletbaev T. Cholg‘u asboblarini o‘rgatishda nota savodini oshirish // Boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. – T., 2023. №. 3. – C. 31-33.

## **FARG‘ONA VODIYSI QIRG‘IZLARI MADANIYATIDA QIRG‘IZ VA O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARINING O‘RNI**

**Bahrom INATULLAYEV,**

*Namangan davlat universiteti*

*Musiqqa ta’limi va madaniyatshunoslik kafedrası dotsenti.*

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysida istiqomat qilayotgan qirg‘izlar kundalik turmush tarzida o‘zbek va qirg‘iz xalq qo‘shiqlari va termalaridan foylanishi atroflicha tahlil etilgan bo‘lib, ijodiy namunalari keltirilgan.

*Kalit so‘zlar:* madaniyat, qirg‘iz etnosi, xalq qo‘shiqlari, termalar, gap-gashtak, ansambl, marosimlar, ijro san’ati.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach esa vatan tarixini, jumladan Farg‘ona vodiysini tarixiy-etnografik jihatdan o‘rganishni yangi bosqichi boshlandi. Har bir hudud aholisini shakllanishi, turli etnik jamoalarni turmush tarzi va madaniyatidagi etnik xususiyatlar bir qator omillar ta’sirida, birinchi galda tabiiy-geografik omil ta’sirida qaror topadi.

Farg‘ona vodiysining tabiiy-geografik tavsifiga to‘xtalganda avvalo, quyidagi ma'lumotlarni keltirib o‘tish joizki, Farg‘ona tog‘lar orasida joylashgan vodiylar. Uning hududi shimoliy-g‘arbda Qurama va Chotqol tizmalari, shimoliy-sharqdan esa Farg‘ona, Janubiy Oloy va qisman Turkiston tizmalari bilan o‘ralgan. Faqat g‘arbda tog‘ tizmalarining pastlashgan joyidan Mirzacho‘lga chiqiladi. Kengligi 8-10 km bo‘lgan bu oraliq hudud shartli ravishda “Ho‘jand darvozasi” nomi bilan yuritiladi.

Farg‘ona vodiysining umumiy maydoni tog‘larni qo‘shib xisoblanganda 22,2 ming km.kv.ni tashkil qiladi. Bodomsimon shakldagi vodiyni uzunligi deyarli 300 km va enining eng keng joyi 170 km.ga teng.

Farg‘ona vodiysi hududida O‘zbekistonning uchta (Andijon, Namangan va Farg‘ona) Tojikistonning bitta (So‘g‘d), Qirg‘izistonning ham uchta (O‘sh, Jalolobod va Botkent) ma'muriy viloyatlari joylashgan. [1.-B.7]

Farg‘ona vodiysi aholisining etnik xilma xilligi turmush tarzi va madaniy hayotda bir qator murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Boisi Farg‘ona vodiysida istiqomat qilayotgan xar bir etnik vakillarning o‘ziga xos madaniyati va turmush tarzi bor.

Namangan viloyati Chortoq tumanining Beshtol, Soroy, Soz-soy qishloqlarida istiqomat qiluvchi qirg'iz millatiga mansub aholi bilan olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda qirg'iz milliy madaniyatida ham integratsion jarayonlar kechayotganini kuzatish mumkin. Masalan, bugungi kunda qirg'iz millatiga mansub aholi tuy marosimlarida qirg'iz xalq qo'shiqlari bilan bir qatorda o'zbek xalq qo'shiqlari va termalaridan keng foydalanilayotganini, ayrim hollarda esa faqat o'zbekcha udumlarni amalga oshirayotganliklarini ta'kidlashgan.

Birgina nikoh to'yi marosimida qirg'iz milliy qo'shig'iga aylanib ulgurgan "Jar-Jar" qo'shig'i albatta ijro etilgan.

Jar-Jar – qirg'iz marosim va kundalik qo'shig'i, to'y paytida kelinning xayrlashuvida ijro etiladi. Chavandozlar va qizlar o'rtasida aytilgan ko'rinishda ijro etilgan [2.]. Qo'shiqning asosiy mazmuni - chet ellarga ketayotgan qizga ko'rsatmalar. Ular uning yangi uyda xushmuomala uy bekasi bo'lishini, farzandli bo'lishini, baxtli hayot kechirishini istashadi. Jar-jar an'anaviy ravishda qizni ketishdan oldin, uni ko'rish bilan bog'liq barcha o'yin-kulgilardan so'ng ijro etilgan [3.]. Biroq, hozirgi kunda nafaqat Qirg'iziston, balki Farg'ona vodiysi qirg'izlari to'y marosimida ham jar-jar nafaqat kelinning xayrlashuvida, balki to'ylarda teatrlashtirilgan tomosha shaklida ham qo'llaniladi. J. Risbayev so'zi, A. Abdullayev musiqasi bilan ijro etiladigan ushbu qo'shiq mazmuni quyidagicha:

Qo'shilishib ikki yosh bir tan bo'ldi yor-yor,

To'y berishib el-yurtga xursand bo'ldi yor –yor.

To'yga kelgan mehmonlar, to'y boshlaymiz yor –yor,

Borigacha ayamay, bo'y tashlaymiz yor-yor.

Oltin o'rda, gulbog'cha, qal'ali bo'l yor –yor,

Ortingdan ergashuvchi bolali bo'l yor-yor,

Aql bilan tinglaylik, ko'ylab yurgin yor-yor,

Yaxshi-yomon farqini o'ylab yurgin yor-yor.

Bitta sendan iltimos, bilib yurgin yor –yor,

Ota-onaga boshing egib yurgin yor-yor.

Oq bulutdek sevilgin, qor bo'lginey yor-yor

Doim shunday yosh bo'lib, bor bo'lginey yor- yor.

Osmon uchsini qush bo'lib oq tilaging yor –yor,

Ajralishmay bir yursin oq tilaging yor-yor.

Bosgan joying doimo unib-o'ssin yor-yor,

Bugun qurgan qo'rg'oning nurli bo'lsin yor yor.

Bugungi kunda ushbu qo'shiq bilan bir qatorda qirg'iz oilalarida o'zbek to'y marosim qo'shiqlari hisoblangan "Yor-yor" qo'shig'i ham keng qo'llaniladi.

Hay-hay o'lan, jon o'lan, baxting bo'lsin yor-yor,

Payg'amharning qizidek taxting bo'lsin yor-yor,

Payg'amharning qizini kim ko'rgan bor yor-yor,

Ota-ona uyiga kim to'ygan bor yor-yor.

Zargar qilgan zanjirni uzib bo'lmas yor-yor,

Xudo qilgan taqdirni buzib bo'lmas yor-yor,

Hay-hay o'lan, jon o'lan, mis panjara yor-yor,

Har jafoga ko'nadi qiz bechora, yor-yor.  
Yig'lama qiz, yig'lama, to'y saniki yor-yor,  
Ostonasi tillodan uy saniki yor-yor,  
Hay-hay o'lan, jon o'lan atoyi qiz, yor-yor,  
Upa-epik kerakmas, chiroyli qiz, yor-yor.

Yuqorida keltirib o'tilgan har ikki qo'shiq xam yangi qurilayotgan oilaga yaxshi tilaklar bilan bir qatorda pand-nasihatni o'z ichiga olganligi bilan o'zbek va qirg'iz madaniyatining o'zaro bog'liqlik jihatlarini o'zida namoyon etadi.

O'rta Osiyo xalqlari madaniyatida gap-gashtaklar alohida o'rin tutib, ular xalq nomoddiy merosi xisoblangan xalq qo'shiqlari va termalarini saqlab qolishning muhim vositasi vazifasini bajargan. Bugungi kunda Farg'ona vodiysi qirg'izlarida ham bu an'ana saqlanib qolgan. O'zaro yoshi, jinsi, qarindoshlik va boshqa xususiyatiga ko'ra yig'ilgan hududiy etnik qirg'iz davralarida ham o'zbekcha ham qirg'izcha xalq va bastalangan, xalq orasida ommalashayotgan qo'shiqlar qo'miz, qirg'iz do'mbirasi jo'rligida ijro etiladi. Qo'yida keltirilgan parchada ham o'zaro bir birini ko'rishga mushtoq qirg'iz qizlarining dugonalarga bo'lgan sog'inchi ifodalangan. Qo'shiq qirg'iz tilida yozib olingan bo'lsa-da, qo'shiq matni o'zbek tiliga tarjima holida keltirildi:

Tinch tur, tinch tur -deb soz aytar,  
Tepishib o'ynaydi o'rdak, g'oz.  
Tengdoshni tengdosh sog'insa,  
Tengidan ko'zlarga kelar yosh.  
Qaydasizlar xur bu qizlar,  
Qadrdonlar qaydalar?!  
Kelinglarchi bir buluvga,  
Ko'ngil ochib o'ltiruvga,  
Zo'r bo'lar, xam siz bilan.  
Umr aziz!!! [4.]

Farg'ona vodiysi qirg'izlari madaniyatida bu kabi do'stlik, mehr-oqibat, muxabbat, o'zaro hamjihatlik, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lovchi xalq qo'shiq va termalari ko'plab topiladi. Bu kabi qo'shiq va termalar hududda qirg'iz etnik qatlamidan shakllangan ijodiy jamoalarni asosiy repertuarlari sifatida ijro etib kelinadi.

Farg'ona vodiysida istiqomat qilayotgan, qirg'iz millatiga mansub iste'dod egalari jam bo'lgan ijodiy jamoalar ham o'zbek va qirg'iz milliy madaniyatini rivojlantirishda munosib xissalarini qo'shib kelmoqda. Ommaviy halq sayllari va bayramlarini o'tkazishda milliy madaniy markazlari qoshida tashkil etilgan milliy folklor ansambllarining o'rni muhim. Andijon viloyatidagi "Do'stlik", Farg'ona viloyatidagi "Suluv qiz", Namangan viloyatidagi "Merim", Farg'ona vodiysidan tashqarida esa Jizzax viloyatidagi "Marjon", Sirdaryo viloyatidagi "Jan-janoy" ansambllari ijrosidagi qo'shiqlar va raqslarga qiziqish katta. Bu ansambllar "O'zbekiston – umumiy uyimiz", "Qudratimiz-birlik va hamjihatlikda", "Vatan bittadir", "Shu aziz Vatan barchamizniki" shiori ostidagi barcha festivallarda sovrinli o'rinlarni egallab kelmoqda. Masalan, Jizzax viloyati Do'stlik tumani

“Manas” QFY Madaniyat saroyi qoshida 2018 yilda tashkil etilgan “Marjon” guruhi O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining “Xavaskorlik halq ansambli” nomli diplomini olishga sazovor bo‘lgan.

Farg‘ona viloyati qirg‘iz milliy madaniy markazining «Suluv qiz» ansambli badiiy rahbari, Farg‘ona tumanidagi 25-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi Xalibaeva Nortoji Toshtonovna 2017 yil O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev Respublika Baynalmilal madaniyat markazining 25-yilligi munosabati bilan mamlakatimizda faoliyat yurituvchi Milliy madaniy markazlarning bir guruh faollarini mukofotlash to‘g‘risidagi farmoniga muvofiq “Shuxrat” medali bilan taqdirlangan. Bu o‘z navbatida mamlakatimiz tomonidan millatlararo bag‘rikenglik muhitida nafaqat o‘zbek va qirg‘iz madaniyatining o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanishiga shart-sharoti yaratish, balki bu boradagi harakatlarni rag‘batlantirib borilayotganini yaqqol misolidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Abdullayev U., Valixonova G. Farg‘ona vodiysi aholisi: etnik tarkibni shakllanishi va etnomadaniy munosabatlar tarixi.-Toshkent, 2016 –B. 7.

2. [Жар-жар // Обычаи и традиции казахского народа](#). Дата обращения: 4 мая 2018. Архивировано из [оригинала](#) 2 мая 2018 года.

3. [Элементы театральности в музыкальном фольклоре // Театр традиционного искусства «Алатау»](#)

4. Dala tadqiqotlari. Malika Sultanova 57 yosh, Namangan viloyati Chortoq tumani Soz soy qishlog‘i.

## **MUQIMIY VA O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI**

**Nazokat KARIMOVA,**

*O‘zbekiston davlat konservatoriyasi*

*“O‘zbek musiqasi tarixi” kafedrasida katta o‘qituvchisi.*

XX asr o‘zbek musiqa san‘atida Muqimiy so‘zlariga mumtoz ashula, katta ashula, maqom yo‘llari hamda o‘zbek bastakorlarining badiiy barkamol asarlari ko‘plab yozildi.

Fikrimizning dalili sifatida Imomjon Ikromov (1891 – 1980), Jo‘raxon Sultonov (1893-1965), To‘xtasin Jalilov (1896-1966), Yunus Rajabiy (1897–1976), Muxtorjon Murtazoyev (1909–1994), Muhammadjon Mirzayev (1913–1999), Faxriddin Sodiqov (1914-1977), Komiljon Jabborov (1914–1975), Saidjon Kalonov (1914–1972), Dadaali Soatqulov (1917-1985), Fattohxon Mamadaliyev (1923-1999), Orifxon Hotamov (1925-2002), Eson Lutfullayev (1935-2000) nomlarini keltirishning o‘zi yetarli.

Atoqli shoir merosini o‘rganib, uni keng ommaga yetkazishda xizmatlari tahsinga sazovor bo‘lgan adabiyotshunos olim G‘ulom Karimov<sup>47</sup>ning e‘tirof

<sup>47</sup> G‘ulom Karimov. O‘zbek demokratik shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti. Filol. fan. d-ri ... diss. Toshkent 1962 yil; Muqimiy hayoti va ijodi. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent, 1970 yil; Muqimiy. Asarlar. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi G‘.Karimov. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974 yil.